

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT
SIYOSATI VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI QOSHIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.04/2025.27.12.I.01.03 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI**

AXMEDOV ZAFAR KADIROVICH

**KICHIK SANOAT ZONALARINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.13. – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
economic Sciences**

Axmedov Zafar Kadirovich Kichik sanoat zonalarini tashkil etish va boshqarish tizimini takomillashtirish.....	3
Ахмедов Зафар Кадилович Создание и совершенствование системы управления малых промышленных зон.....	31
Axmedov Zafar Kadirovich Creation and improvement of a management system for small industrial zones.....	63
E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works.....	68

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT
SIYOSATI VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI QOSHIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.04/2025.27.12.I.01.03 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI**

AXMEDOV ZAFAR KADIROVICH

**KICHIK SANOAT ZONALARINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.13. – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/Iqt5851 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda: o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.dsba.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Xolov Aktam Xatamovich iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
Rasmiy opponentlar:	Raximova Dilfuza Nigmatovna iqtisodiyot fanlari doktori, professor
	Umarova Go'zal G'ayratovna iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi huzuridagi DSc.04/2025.27.12.I.01.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "20" fevral soat 15.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 45. Tel.:(99871) 232-60-80; faks: (99871) 232-60-66, , e-mail: info@dsba.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (381 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 45. Tel.:(99871) 232-61-25; e-mail: info@dsba.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "9" fevral kuni tarqatildi.
(2026-yil "9" fevraldagi 1-raqamli reestr bayonnomasi).

B.E.Tashmurodova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

U.U.Pardaev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

D.N. Raximova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH

(falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda hududlarni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni ko‘proq jalb qilish uchun kichik sanoat zonalarini isloh qilish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun ularga zamonaviy texnologiyalarni olib kirish, innovatsiyalardan foydalanish hamda davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish asosiy vazifa etib belgilanmoqda. “Dunyoda yashil iqtisodiyotga o‘tish asosida kichik sanoat zonalarida yangi trendlarga ega bo‘lgan eko-industrial parklar va soha klasterlari tashkil etish, sanoat zonalarida raqamli iqtisodiyot va sun‘iy intellekt texnologiyalariga asoslangan ishlab chiqarish zanjirini tashkil etish orqali biznes faoliyatini optimallashtirishda katta ahamiyat kasb etmoqda”¹. Shunga ko‘ra, kichik sanoat zonalarini tashkil etish va boshqarish tizimini takomillashtirishning ahamiyati tobora oshib bormoqda.

Dunyo miqyosida kichik sanoat zonalarini tashkil etish va boshqarish tizimini takomillashtirish masalasi globallashtirish va barqaror rivojlanish sharoitida ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanib qolmoqda. Klasterlar orqali kichik va o‘rta korxonalar uchun innovatsiyalarni rag‘batlantirish, iqtisodiy ustunlikni oshirish, ekologik xavflarni kamaytirish faoliyatini kengaytirish, kichik sanoat zonalarini rivojlantirish orqali yuqori qo‘shimcha qiymat yaratuvchi tarmoqlarni jamlash, ta‘minot zanjirlarini optimallashtirish, resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda tadbirkorlikni institutsional qo‘llab-quvvatlash, jamoaviy innovatsiya hududlari, kichik sanoat klasterlarini raqamlashtirish, yashil sanoat zonalarini yaratish, kichik sanoat zonalarining samarali boshqaruv modellarini ishlab chiqish kabilar bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda kichik sanoat zonalarini tashkil etish va boshqarish tizimini takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida sanoatni jadal rivojlantirish, hududlarda ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish va mahalliy tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan². Hududiy sanoat ko‘rsatkichlarini oshirish va investitsiyalarni jalb etishda kichik sanoat zonalarini (KSZ) infratuzilmasini kengaytirish strategiyaning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Strategiya ijrosini ta‘minlashda kichik biznesni sanoatlashtirish, zamonaviy ishlab chiqarish maydonlari tashkil etish, ularni muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta‘minlash masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Hududiy sanoat salohiyatini oshirishda kichik sanoat zonalarini orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarga qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning boshqaruv tizimini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri sifatida ko‘rilmogda. “So‘nggi besh yilda O‘zbekistonda sanoat

¹ Marta Mackiewicz, Marta Götz; The role of clusters in advancing Industry 4.0 solutions: insights from the Polish automotive context. Digital Policy, Regulation and Governance 30 April 2024; 26 (4): 357–374. <https://doi.org/10.1108/DPRG-07-2023-0098>; New Trends in Special Economic Zones: Opportunities for Developing Countries. // <https://iap.unido.org/articles/new-trends-special-economic-zones-opportunities-developing-countries>

²O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, qabul qilingan sana 11.09.2023-yildagi PF-158-son, Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.03.2025-y., 06/25/56/0274-son–URL: <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

sohasi bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni barqaror o'sishni namoyon qilmoqda. 2021-yilda ularning soni 91 829 tani tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 113 059 taga yetdi. Bu 5 yil mobaynida umumiy o'sish 21 230 taga teng bo'lib, 23,1 foizga o'sish demakdir"³. Bugungi kunda qabul qilingan qonunchilik normalarida kichik sanoat zonalari boshqarish direksiyasini tashkil etish mexanizmi belgilab berilgan bo'lishiga qaramasdan, zonalarning samaradorlik ko'rsatkichlari aniq belgilab berilmagan. Bu mazkur yo'nalishda chuqur tahlil va o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Yuqoridagilarga asosan KSZ boshqaruvini hududlar darajasida takomillashtirish jarayonini o'rganish muhim. Mavjud vaziyatdan kelib chiqib, kichik sanoat zonalari tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish masalasini tadqiq etish muhim dolzarblik kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 yanvardagi PF-16-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida", 2025-yil 4-martdagi PF-41-son "Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalari faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash yili Davlat dasturi to'g'risida", 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 13-iyundagi PF-153-son "Maxsus iqtisodiy, kichik sanoat, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyati samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida", 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2022-yil 6-iyundagi PQ-271-son "Hududlarda maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari tashkil qilish va ularni muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 6-fevraldagi PQ-3513-son "Xorazm viloyatida tadbirkorlik subyektlariga davlat mulki obyektlarini sotish va kichik sanoat zonalari tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 17-iyuldagi 432-son "Kichik sanoat zonalari hamda yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari tadbirkorlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2020-yil 9-martdagi 134-son "Kichik sanoat zonalari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida", 2018-yil 26-apreldagi 308-son "Xorazm viloyatida qo'shimcha kichik sanoat zonalari tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari va ushbu sohadagi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Iqtisodiyotni rivojlantirish, xususan, kichik sanoat zonalarga investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanishning

³State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics. (2025). Industry statistics section. Retrieved June 7, 2025, from <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/sanoat>

nazariy jihatlarini qator olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, g'arb olimlaridan M. von Hauff, S. Sah, A. Grant, T. H. Davenport, N. Mittal, V. Chan Kim, R. Mauborgne, S. Vang, Ch. Liang, Y. Gao, Y. Liu, J. Li, H. Vang, R. Yao, Adizes I., V. P. Kam, T. S. Vi va boshqalar menejment, rahbarlik kompetensiyalari, investitsiyalar va ularning samaradorligi hamda iqtisodiy barqarorlik to'g'risidagi nazariy va amaliy konsepsiyalarni tahlil qilganlar⁴.

MDH mamlakatlari iqtisodchilari S. Borozdina, D. Iskandarov, T. V. Konovalova, A. V. Chebikina, D. I. Kokurin, O. N. Belenov, Yu. V. Shurchkova, T. Yu. Smolyaninova, L. N. Ogoleva va boshqalar zamonaviy ilmiy ishlarida kichik sanoat zonalaridagi investitsiyalarning shakllari, ularni moliyalashtirish manbalari, samaradorligini baholash masalalari tadqiq etilgan⁵.

Kichik sanoat zonasi loyihalarini amalga oshirishdagi muvaffaqiyatsizliklar sabablari, kichik sanoat zonalar konsepsiyasini yaratishning nazariy asoslari P. D. Kuznesov va T. S. Shetinina tomonidan batafsil ko'rib chiqilgan va kichik sanoat zonalarining ilmiy-uslubiy asoslari hamda turli xil tasniflari keltirilgan⁶.

Xitoyning kichik sanoat zonalarini boshqaruv tizimi va iqtisodiy-ijtimoiy tasniflagichlari Y. Fan, B. Bai, Q. Qiao, P. Kang, Y. Zhang, J. Guo, X. Bao, F. Boons, Y. Geng, J. Guo, V. Jiao, Yu. Jang, P. Kang, K. Kiao, B. Lai, X. Li, Ch. Li, V. Liu, J. Tian, G. Teysman, Yu. Fan, Z. Xenksin, L. Chen, Y. Chen, A. Tuerk, Matthev E. Kahn, Veizeng Sun, Jianfeng Vu, Siqi Zheng, H. Thieriot, D. Saver asarlarida ko'rib chiqilgan⁷.

⁴von Hauff, M. (2015). *Industrial Zone Planning according to Sustainable Development*. Springer https://www.researchgate.net/publication/312628601_Industrial_Zone_Planning_according_to_the_Requirements_of_Sustainable_Development. Decoding Urban Industrial Complexity. (2024) . Siqi Wang, Chao Liang, Yunfan Gao, Yang Liu, Jing Li, Haofen Wang <https://arxiv.org/abs/2411.15758>, <https://doi.org/10.1145/3664647.3681705> Rainy Yao. (2014) Finding Your "Comfort Zone": A Guide to Industrial Parks in the Yangtze River Delta (Part 1) <https://www.china-briefing.com/news/finding-comfort-zone-guide-industrial-parks-yangtze-river-delta/> Adizes, I. (2019). *Managing Corporate Lifecycles: How Organizations Grow, Age and Die*. Santa Barbara: Adizes Institute Publications. <https://www.adizes.com/books/managing-corporate-lifecycles/>. Defy: The Power of No in a World that Demands Yes – Sunita Sah (2025) <https://www.sunitasah.com/defy> Hidden Potential: The Science of Achieving Greater Things – Adam Grant (2023) <https://adamgrant.net/book/hidden-potential/> All In on AI: How Smart Companies Win Big with Artificial Intelligence – Thomas H. Davenport & Nitin Mittal (2023) ISBN 978-1-64782-467-5 Business Bestseller List". The Wall Street Journal. August 2023. ISSN 0099-9660 "Singapore Industrial Parks: Competing in the Global Economy" by Wong Poh Kam and Tan Sze Wee, published in the Journal of International Commerce, Economics and Policy: <https://www.worldscientific.com/doi/abs/10.1142/S1793993314500046>

⁵D.Iskandarov, S.Borozdina (2023). *Management of Industrial Development Projects in Special Economic Zone*. Global Economic Development Series. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202343107043> https://www.researchgate.net/publication/374702910_Management_of_industrial_development_projects_in_special_economic_zone. Konovalova T.V. "Razvitie industrialnix parkov kak innovatsionniy faktor ekonomicheskogo rosta" dissertatsiya ishi, M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat Universiteti 2020 y A.V.Chebikina 2018 yil magistrlik ishi «razrabotka developerskogo proekta po uluchsheniyu infrastrukturi industrialnogo parka «pro-biznes-park»» Ural federal universiteti, Iqtisod va menejment oliy maktabi Kokurin D.I. Innovatsionnaya deyatel'nost. M.: Ekzamen, 2006. Belenov O.N., Shurchkova Yu.V., Smolyaninova T.Yu. Industrialnie parki v Rossii i za rubejom: opit sozdaniya i razvitiya // Sovremennaya ekonomika: problemi i resheniya: nauchniy jurnal. 2015. № 7 S. 78-92. [Elektron manba]. URL: <http://meps.econ.vsu.ru/meps/article/viewFile/1125>

⁶ Maslou, D. (2017). *Maliy biznes. Strategii sovershenstvovaniya na osnove upravleniya kachestvom*. Moskva: LitRes/ Entov R. Investitsii: finansirovanie i otsenka ekonomicheskoy effektivnosti. -Minsk Vuz-Yuniti 1996. Shetinina T.S., Kuznesov A.N. Industrial parklarning rivojida jahon tajribasi // "Ekonomika i menedjment innovatsionnix texnologiy" elektron ilmiy-amaliy jurnal. 2017.№5 [Elektron resurs]. URL: <http://ekonomika.snauka.ru/2017/05/14837>

⁷ Fan Y., Bai B., Qiao Q., Kang P., Zhang Y., Guo J. Study on Eco-efficiency of Industrial Parks in China Based on Data Envelopment Analysis. - Journal of Environmental Management. - 2017. - № 192. - p. 107 - 115. Chen Y., Tuyerk A. Low-Carbon Urban Development in China: Current Initiatives, Future Plans and First Lessons. -

Y. Geng, Z. Hengxin, B. R. Van, S. H. Erkman, Cho Y. J. On, J. Vidovaning kichik sanoat zonalarini rivojlanish tarixi, ekologik boshqaruv modellari, boshqaruv konsepsiyalari tahlili alohida e'tiborga loyiq⁸.

O'zbekiston iqtisodiyotida boshqaruv va boshqa muhim masalalar A.Sh. Bekmurodov, D.N. Raximova, M.B. Xamidulin, B.B. Alimov, K.M. Shodmonqulov, S.S. G'ulomov, A.V. Vaxabov, D.A. Tadjibaeva, Sh.X. Xajibakiev, D. G'ozibekov, N.X. Xaydarov, Sh.G. Yuldashev, A.M. Sadikov, B. Salimov va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan⁹. Bu ishlarda asosan xorijiy investitsiyalarni jalb etishni kuchaytirishning nazariy jihatlarini, bu jarayondagi moliyaviy-soliq munosabatlari yoritilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq № PZ-20170929277-“Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida hududiy tuzilmalar boshqaruvining institutsional mexanizmini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Xorazm viloyati misolida kichik sanoat zonalarini tashkil etish va boshqarishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

xorijiy mamlakatlar tajribasiga alohida e'tibor qaratgan holda kichik sanoat zonalarini shakllantirish va boshqarishni o'rganish;

O'zbekistonda kichik sanoat zonalarini boshqarishning tashkiliy-huquqiy asoslarini tahlil qilish;

POCACITO Policy Brief. - 2016. - № 1. - 12 p Fan Y., Bai B., Qiao Q., Kang P., Zhang Y., Guo J. Study on Eco-efficiency of Industrial Parks in China Based on Data Envelopment Analysis. - Journal of Environmental Management. - 2017. - № 192. - p. 107 - 115. Chen Y., Tuyerk A. Low-Carbon Urban Development in China: Current Initiatives, Future Plans and First Lessons. - POCACITO Policy Brief. - 2016. - № 1. - 12 p Matthew E. Kahn, Weizeng Sun, Jianfeng Wu, Siqi Zheng. The Revealed Preference of the Chinese Communist Party Leadership: Investing in Local Economic Development Versus Rewarding Social Connections. - National Bureau of Economic Research. - Working Paper 24457. - March 2018. Thieryeriot H., Sawyer D. China's Low-Carbon Competitiveness and National Technical and Economic Zones. Development of Eco-Efficient Industrial parks in China: A Review. - International Institute for Sustainable Development. - 2015.

⁸ Heyoung Cho “Industrial Park Development Strategy and Management Practices” KICOX, 2012. page 27. Jarmila Vidova “Industrial parks - history, their present and influence on employment” review of economic perspectives volume x. Issue 1, 2010. page 41. Yoon, Jong On “Industrial Park Development in Korean Economy” KICOX. 2011. page 41 Van B.R., Erkman S. Eco-Industrial Parks in Emerging and Developing Countries: Achievements, Good Practices and Lessons Learned. Synthesis of National Policies Reviews. UNIDO Resource Efficient and Cleaner Production (RYeCP) Programme. - ICAST, Geneva. -2014. - V01. Geng Y., Hengxin Z. Industrial Park Management in the Chinese Environment. - Journal of Cleaner Production. - 2009. - № 17. - p. 1289 - 1294.

⁹ B.B.Alimov, D.N.Raximova, M.B.Xamidulin, (2022) V stranax postsovetskogo prostranstva “Evolyutsiya gosudarstvennogo upravleniya v stranax postsovetskogo prostranstva. Respublika Uzbekistan” Jurnal Gosudarstvennaya Slujba 2022 tom 24 No 4, ISSN 2070-8378, E-ISSN 2500-4344 K.M.Shodmonqulov. (2021–2022). “The Role of Competition in the Development of Small Industrial Zones”. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, <http://dx.doi.org/10.18415/ijmmu.v8i9.3012>. https://www.researchgate.net/publication/354394399_The_Role_ofCompetition_in_the_Development_of_Small_Industrial_Zones. A.Sh.Bekmurodov, D.N.Raximova (2024) “Nauka v gosudarstvennom upravlenii novogo Uzbekistana” Jurnal Gosudarstvennaya Slujba 2024 tom 26 № 6, DOI: 10.22394/2070-8378-2024-26-6-21-28 Raximova, D.N. (2023) “Opit povisheniya investitsionnogo potentsiala strani ”International scientific and practical conference improving Uzbekistan's position in international ratings and indexes: theory, practice, and strategy. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10143045>. 220 “Small industrial zones: a new approach to investment development in the republic of Uzbekistan” B.Salimov and other PaiArch's Journal PJAYEYE, 17 (6) (2020)

Xorazm viloyati misolida kichik sanoat zonalarining xususiyatlarini, ularning faoliyati, ishlashi va mahalliy iqtisodiyotga ta'sirini o'rganish;

kichik sanoat zonalarini yanada rivojlantirish, ularning mamlakat iqtisodiy o'sishi va rivojlanishiga qo'shgan hissasini tizimli o'rganish;

Xorazm viloyatidagi kichik sanoat zonalarini boshqarish tizimidagi mavjud muammolarni aniqlash va uning samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini Xorazm viloyatidagi kichik sanoat zonalarini boshqarish faoliyati tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini kichik sanoat zonalarini boshqarish jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, iqtisodiy tahlil, adabiyotlarni ko'rib chiqib tahlil qilish, prognozlash usullari, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili, klaster tahlil, grafik talqin, so'rov, SWOT tahlil, tanlanma kuzatuv, tizimli tahlil va intervyu usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kichik sanoat zonalarini joylashtirish va tashkil etishni boshqarish samaradorligini oshirishda kichik sanoat zonalarini tashkil etishning asosiy omillari yordamida integral baholash hududiy iqtisodiy salohiyat ($HIS = 0,35$), mahalliy resurslar ($MR = 0,23$), bozor infratuzilmasi ($BI = 0,17$) va institutsional muhit ($IM = 0,25$) omillari ta'sir chegarasini belgilash orqali takomillashtirilgan;

kichik sanoat zonalarida ishlab chiqarish maydonlari va yer uchastkalarini taqsimlash jarayonida investitsiya loyihalarining mavjud texnik infratuzilma bilan o'zaro muvofiqlik darajasini baholashni elektron auksion platformasi asosida amalga oshirish orqali investorlarga infratuzilma jihatdan yuqori tayyorgarlikka ega bo'lgan maydonlarni ustun tarzda taqdim etishni ta'minlash asoslangan;

kichik sanoat zonalarida takroriy tanlovda yagona talabgorning investitsiya buyurtmanomasini tarmoq ixtisoslashuvi va hududiy resurslar salohiyati mezonlari asosida kompleks baholash, Ma'muriy kengash tomonidan qaror qabul qilishning kollegial ovoz berish jarayonini to'liq raqamlashtirish va ushbu jarayonni elektron-onlayn auksion instituti bilan integratsiyalash orqali loyiha tanlovlarini o'tkazish muddati ($30 \leq M_{LT} \leq 40\%$) hamda joy taqsimoti bo'yicha inson omili ta'siri ($T_{IO} \leq 60\%$) ni qisqartirishning miqdoriy chegaralari asoslangan;

kichik sanoat zonalarida ssenariyli prognozlash va tarmoq ixtisoslashuviga asoslangan kompleks modeli maqsadli indikatorlari asosida Xorazm viloyati kichik sanoat zonalarini rivojlantirishning 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekistonda kichik sanoat zonalarini tashkil etish va boshqarish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar hamda "Yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish, kichik sanoat zonalarida tizimli islohotlarni amalga oshirish, kichik sanoat zonalarini samarali boshqarish uchun amaliy usullar ishlab chiqilgan;

O‘zbekiston Respublikasida kichik sanoat zonalarini tashkil etish va boshqarishning iqtisodiy va huquqiy asoslari yuzasidan xulosalar, qonunchilik va tartibga solish sohasidagi yangi normalar ta’riflangan;

Xorazm viloyatidagi kichik sanoat zonalarining xususiyatlari va muammolari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar ularni boshqarish va ish faoliyatini yaxshilash bo‘yicha maqsadli tadbirlarni amalga oshirish yo‘llari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ilmiy tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlil jarayonida qiyosiy yondashuv, iqtisodiy-statistik usullar va tizimli tahlil metodologiyalaridan keng foydalanilganligi, tadqiqotda rasmiy statistik manbalar asos qilib olinganligi, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari hamda mavzuga oid asosiy nashrlarga tayangan holda xulosalar shakllantirilganligi, shuningdek, tadqiqot materiallari tajribali ekspertlar tomonidan baholanganligi, ilmiy jurnallarda, jumladan, xalqaro ilmiy nashrlarda chop etilgan va ilmiy seminarlar hamda konferensiyalarda keng jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilganligi kabi bir qator omillar bilan ta’minlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya tadqiqoti natijalarining ilmiy ahamiyati kichik sanoat zonalarini hududiy va mamlakat miqyosida ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi kooperatsiyaning o‘ziga xos shakli sifatida tahlil qilish, kichik sanoat zonalarining asosiy funksiyalarini aniqlash, ularning shakllanish va rivojlanishining tarixiy bosqichlarini o‘rganish, shu bilan birga, hududlar iqtisodiy o‘rta sishiga ko‘rsatayotgan ta’sirini tahlil qilish orqali muhim amaliy va nazariy xulosa chiqarish, kichik sanoat zonalarini mexanizmlarining yanada chuqur tushunish va ularni samarali boshqarish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiya tadqiqoti natijalarining amaliy ahamiyati kichik sanoat zonalarini tashkil etish va boshqarishning huquqiy va siyosiy asoslari to‘g‘risidagi xulosalardan kelgusida qonunchilik va tartibga solish sohasidagi islohotlar to‘g‘risida ma’lumot berish, O‘zbekiston hukumati va kichik sanoat zonalarini boshqaruvchilari uchun kichik sanoat zonalarini boshqarish va ish faoliyatini yaxshilash, Xorazm viloyatidagi kichik sanoat zonalarining xususiyatlari va muammolari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlardan ularni boshqarish va ish faoliyatini yaxshilash bo‘yicha maqsadli tadbirlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilish. Kichik sanoat zonalarini tashkil etish va boshqarishni takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

kichik sanoat zonalarini joylashtirish va tashkil etishni boshqarish samaradorligini oshirishda kichik sanoat zonalarini tashkil etishning asosiy omillari yordamida integral baholash hududiy iqtisodiy salohiyat ($HIS = 0,35$), mahalliy resurslar ($MR = 0,23$), bozor infratuzilmasi ($BI = 0,17$) va institutsional muhit ($IM = 0,25$) omillari ta’sir chegarasini belgilash orqali takomillashtirish bo‘yicha takliflari Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi Xorazm viloyat boshqarmasi va Xorazm viloyat hokimligi faoliyatida joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2024-yil 27-apreldagi 02-13-4176-son, 2025-yil 24-yanvardagi 02-20-00101-son, Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil

23-apreldagi 10-1538-son, 2026-yil 15 yanvardagi 7-142-son ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida maxsus iqtisodiy, kichik sanoat, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarida samaradorlik formulasi qo'llanilishi ta'sirida boshqaruv samaradorligini 25 foizgacha oshirish imkoni yaratilgan;

kichik sanoat zonalarida ishlab chiqarish maydonlari va yer uchastkalarini taqsimlash jarayonida investitsiya loyihalarining mavjud texnik infratuzilma bilan o'zaro muvofiqlik darajasini baholashni elektron auksion platformasi asosida amalga oshirish orqali investorlarga infratuzilma jihatdan yuqori tayyorlikka ega bo'lgan maydonlarni ustun tarzda taqdim etishni ta'minlash bo'yicha takliflari Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Xorazm viloyat hokimligi faoliyatida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo'mitasining 2025-yil 14-maydagi 04/7-10-4-son, O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2024-yil 27-apreldagi 02-13-4176-son, 2025-yil 24-yanvardagi 02-20-00101-son, Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 23-apreldagi 10-1538-son, 2026-yil 15 yanvardagi 7-142-son ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-iyuldagi 375-sonli qarori bilan kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga asosan Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi 134-son qarorida tasdiqlangan Kichik sanoat zonalarini to'g'risidagi nizomning 26-bandida o'z aksini topib, barcha KSZlar boshqaruviga joriy etilgan hamda jami respublikadagi 532 ta KSZlarda 4654 ta loyihalarda 7,4 trln.so'mlik investitsiyalar o'zlashtirilishiga erishilgan;

kichik sanoat zonalarida takroriy tanlovda yagona talabgorning investitsiya buyurtmanomasini tarmoq ixtisoslashuvi va hududiy resurslar salohiyati mezonlari asosida kompleks baholash, Ma'muriy kengash tomonidan qaror qabul qilishning kollegial ovoz berish jarayonini to'liq raqamlashtirish va ushbu jarayonni elektron-onlayn auksion instituti bilan integratsiyalash orqali loyiha tanlovlarini o'tkazish muddati ($30 \leq M_{LT} \leq 40\%$) hamda joy taqsimoti bo'yicha inson omili ta'siri ($T_{IO} \leq 60\%$) ni qisqartirishning miqdoriy chegaralariga doir takliflari Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Xorazm viloyat hokimligi faoliyatida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo'mitasining 2025-yil 14-maydagi 04/7-10-4-son, O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2024-yil 27-apreldagi 02-13-4176-son, 2025-yil 24-yanvardagi 02-20-00101-son, Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 23-apreldagi 10-1538-son, 2026-yil 15 yanvardagi 7-142-son ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-iyuldagi 375-sonli qarori bilan kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga asosan Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi 134-son qarorida tasdiqlangan Kichik sanoat zonalarini to'g'risidagi nizomning 29-bandida o'z aksini topib, barcha KSZlar boshqaruviga joriy etilgan hamda jami 528 ta KSZlarda 4654 ta loyihalarda yillik 14,3 trln.so'mlik ishlab chiqarish quvvatlariga erishilgan;

kichik sanoat zonalarida ssenariyli prognozlash va tarmoq ixtisoslashuviga asoslangan kompleks modeli maqsadli indikatorlari asosida Xorazm viloyati kichik sanoat zonalarini rivojlantirishning 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlariga doir takliflari Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Xorazm viloyat hokimligi faoliyatida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2024-yil 27-apreldagi 02-13-4176-son, 2025-yil 24-yanvardagi 02-20-00101-son, Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 23-apreldagi 10-1538-son, 2026-yil 15 yanvardagi 7-142-son ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida murojaat qilayotgan tadbirkorlarning byurokratik jarayonlari kamayib, loyihalarning ishga tushish muddatlari kamayishiga va jami KSZlarda bo'sh yer maydonlari 85 foizga qisqartirilishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari doirasida 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilib, ma'ruzalar qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Mavzuga doir tadqiqotlar jarayonida jami 16 ta ilmiy ishlar e'lon qilib borilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan nashrlarda 9 ta maqola chop etilgan. Maqolalarning 3 tasi mamlakatimiz ilmiy jurnallarida, 6 tasi xorijiy ilmiy nashrlarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi tuzilmasi bo'yicha an'anaviy ilmiy talablarga javoban shakllantirilgan bo'lib, u kirish qismi, uchta asosiy bob, umumiy xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga oladi. Tadqiqot materiallari jamlanmasi umumiy hisobda 177 bet hajmni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslandi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatildi, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil qilindi hamda ishning ilmiy yangiliklari bayon etildi. Tadqiqotning obykti, predmeti aniqlandi, maqsad va vazifalari belgilandi. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, sinovdan o'tkazilishi, tadqiqot natijalarining nashr etilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirildi.

Dissertatsiyaning **“Kichik sanoat zonalarni tashkil etish va boshqarishning nazariy-uslubiy asoslari”** mavzusidagi birinchi bobida **“Kichik sanoat zonalari”** tushunchasi va ahamiyati, kichik sanoat zonalarni tashkil etish va boshqarish shakllari, kichik sanoat zonalarni tashkil etish va boshqarishga oid xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilindi.

KSZlar ishlab chiqaruvchi subyektlarning hududiy hamkorlik modelini shakllantiradi, aylanma xarajatlarni kamaytiradi, yalpi unumdorlikni oshiradi va mavjud resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi. KSZ hududida boshqaruv direksiyasi ishlab chiqaruvchilarning kapital va joriy xarajatlarini

optimallashtirishga yordam beradi, huquqiy, infratuzilmaviy va xavfsizlik xizmatlarini taqdim etadi.

Xalqaro amaliyotda KSZlar nafaqat ishlab chiqarish markazi, balki ijtimoiy infratuzilmaga ega kichik shaharchalar sifatida ishlaydi. Turar joy, ta'lim, tibbiyot va boshqa xizmatlar xodimlarning kundalik ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi, bu esa mehnat unumdorligini oshiradi. KSZlar maxsus zonalar (texnoparklar, erkin savdo zonalar), sanoat parklari, logistika markazlari va biznes-inkubatorlar shakllarda bo'ladi. KSZlar biznes-parklar shaklida tashkil etilib, yuqori sifatli muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilma bilan ta'minlanadi. Bu hududda investorlar uchun qulay investitsion muhit yaratadi. Masalan, BMT Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (UNIDO) ta'rifiga ko'ra, KSZlar maxsus infratuzilmaga ega, ishlab chiqarish uchun ajratilgan hududlardir. Tadqiqotlar (Jarmila Vidova¹⁰) KSZlar iqtisodiy rivojlanish va bandlikni ta'minlashda muhim ekanini tasdiqlaydi, ular standart (moliyaviy, huquqiy, transport) va nostandart (logistika, ilmiy tadqiqot, kadrlar tayyorlash) xizmatlarni taqdim etadi.

Shu o'rinda KSZlarning SWOT-tahliliga nazar solsak.



1-rasm. KSZ larning SWOT tahlili¹¹

Kichik sanoat zonalarini rivojlantirishda kuchli tomonlar – soliq imtiyozlari, arzon ishchi kuchi, ishlab chiqarish xarajatlarining pastligi va davlat dasturlari qo'llovi tufayli iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash imkonini beradi. Infratuzilma ta'minoti va mahalliy bozorga kirishning qulayligi ham raqobat ustunligini kuchaytiradi. Imkoniyatlar esa xalqaro bozorlarga chiqish, eksport salohiyatini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, texnologik innovatsiyalarni joriy etish

¹⁰ Vidová, Jarmila. Industrial Parks – History, Present and Its Influence to the Employment // Review of Economic Perspectives. — Vol. 10, Issue 1, March 2010. — Pp. 41–58 <https://reference-global.com/article/10.2478/v10135-009-0008-1>

¹¹Tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan.

va sanoat klasterlarini shakllantirish orqali yanada kengayadi. Yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish bu jarayonni tezlashtirishi mumkin.

Turli xil mamlakatlarda kichik sanoat zonalarga turli xil ta’riflar beriladi. Masalan, UNIDO tomonidan kichik sanoat zonalarga berilgan ta’rif quyidagicha: “Kichik sanoat zonalarini – sanoat korxonalarini uchun umumiy rejalar asosida bo‘laklarga bo‘lingan yer maydoni bo‘lib, bu yerda bo‘sh yer maydoni yoki tayyor binolar bilan ta’minlangan maxsus infratuzilma bilan ta’minlangan hududga aytiladi.”¹² Xalqaro tajribada KSZlar soliq imtiyozlari (Rossiya, Xitoy, Vetnam) va infratuzilma xizmatlari (Sujou, Jubail, ZETA) bilan qo‘llab-quvvatlanadi. Janubiy Koreya misolida sanoat zonalarini boshqarish alohida korporatsiyalarga topshirilib, barqaror rivojlanish ta’minlangan.

1-Jadval

Sanoat zonalarini yaratishning qulay shartlari va mumkin bo‘lgan risklari jadvali.¹³

Kichik sanoat zonasini yaratish uchun qulay sharoitlar	Risklar
Muhandislik tarmoqlari va kommunikatsiyalarining yetarli quvvati	Sanoat parkining ixtisoslashgan boshqaruv kompaniyasi xizmatlari uchun oshirilgan narxlar
Shahar aglomeratsiyasining mavjudligi, yadro shahar va unga tutash bir nechta shaharlarning potentsiali birlashuvi	Sanoat parki rezidentlarining biznes-rejalarini amalga oshirish muddatlariga rioya qilmasligi
Infratuzilmalarning ko‘p funksiyali "paketini" yig‘ish imkonini beruvchi transport kommunikatsiyalari uchrashishi	Kichik va o‘rta biznes subyektlari sonining yetarli emasligi tufayli kichik ishlab chiqarish quvvatlarini ijaraga olish bo‘yicha mavjud ehtiyoj to‘liq qondirilmaganligi.
Inson resurslari bilan ta’minlanganlik holati: oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarining faoliyati, yosh avlodning tashqi va ichki migratsiya jarayonlaridagi ishtiroki, shuningdek, moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan korxonalarda ishlagan tajribali mutaxassislar mavjudligi	Muayyan turdagi binolarga bo‘lgan ehtiyoj nomutanosib taqsimlangan: ayrim turdagi bo‘sh joylar mavjud bo‘lsa-da, boshqa — ayniqsa, kichik hajmli ishlab chiqarish maydonlariga bo‘lgan talab yetarli darajada qondirilmaganligi.
Rivojlangan ishlab chiqarish va biznes muhiti	Boshqaruv faqat ko‘chmas mulkka e’tibor qaratishi, firmalar tasodifiy joylashishi va infratuzilma noto‘g‘ri bog‘lanishi jarayonlarni sekinlashtirib, ishlab chiqarish quvvatlari va raqobatbardoshlikka salbiy ta’sir qiladi, yangi yo‘nalishlarga moslashuv ham sust bo‘ladi.

Tadqiqotda kichik sanoat zonalarini joylashtirish va tashkil etish samaradorligini oshirishga qaratilgan integral baholash modeli ishlab chiqildi. Mazkur model hududiy iqtisodiy salohiyat, mahalliy resurslar, bozor infratuzilmasi va institutsional muhitni kompleks baholash orqali KSZlarni samarali joylashtirish va boshqarish imkonini beradi.

KSZlarda ishlab chiqarish maydonlari va yer uchastkalarini taqsimlash jarayonida investitsiya loyihalarining texnik infratuzilma bilan muvofiqligini elektron auksion asosida baholashga qaratilgan integral elektron baholash

¹² Konovalova T.V. “Razvitie industrialnix parkov kak innovatsionniy faktor ekonomicheskogo rosta” dissertatsiya ishi, M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat Universiteti 2020 y

¹³ Industrialniy park - instrument razvitiya munitsipalnuy ekonomiki [Elektron resurs] //:http://www.ngpc.ru/file db/ic-ngpc/IndustrPark2016.pdf

mexanizmi taklif etildi. Ushbu yondashuv har bir maydon uchun infratuzilma tayyorlik indeksini shakllantirish orqali qaror qabul qilishda shaffoflikni ta'minlaydi.

Investitsiya loyihalarini tanlashda tarmoq ixtisoslashuvi va hududiy resurslar salohiyatiga asoslangan kompleks baholash mexanizmi ishlab chiqildi hamda ma'muriy boshqaruvda kollegial qaror qabul qilish jarayonini raqamlashtirishning nazariy modeli asoslandi. Bu yondashuv qaror qabul qilishda subyektivlikni kamaytirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Kichik sanoat zonalarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarining amaldagi holati tahlili (Xorazm viloyati misolida)”** mavzusidagi ikkinchi bobida kichik sanoat zonalari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, kichik sanoat zonalarni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy asoslari hamda kichik sanoat zonalarni boshqarishdagi mavjud muammolar va ularning kelib chiqish sabablari tahlil qilinadi.

Kichik sanoat zonalarning sifatli boshqarilishi mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon bankinging biznes yuritish sohasidagi xalqaro reytingida e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston dunyoning eng ilg'or o'nta islohotchi davlati qatoriga kiritilgan. Ushbu natijaga erishishda bir qator institutsional va iqtisodiy chora-tadbirlarning amalga oshirilgani asosiy omil sifatida qayd etilishi mumkin. Bugungi kunda eksport faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar soni 7,5 mingdan oshgan bo'lib, eksport salohiyatining izchil oshirilishi hisobiga 2026-yilga borib mamlakat eksport hajmining 30 milliard AQSh dollariga yetishi prognoz qilinmoqda¹⁴.


O'zbekistonda KSZ tarixi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat mulki obyektlarini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga sotish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2014-yil 3-iyuldagi PQ-2200-son qarorini hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Zarar ko'rib ishlayotgan, iqtisodiy nochor va past rentabelli tashkilotlarning foydalanilmayotgan hududlarini hamda ortiqcha ishlab chiqarish maydonlarini yanada maqbullashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2014-yil 15-iyuldagi 192-son qarorini bajarish yuzasidan, shuningdek, ishlab chiqarish sohasida aholi bandligini oshirish, yangi raqobatbardosh ishlab chiqarishlarni, ularni muhandislik kommunikatsiyalari o'tkazilgan va zarur infratuzilmaga ega bo'lgan alohida hududlarda jamlash yo'li bilan tashkil etish uchun investitsiyalar va texnologiyalarni jalb etish maqsadida 10 gektar va undan ko'p bo'linmas hududga ega sanoat zonalari tashkil qilinadi¹⁵.

Tahlil vaqtidagi ma'lumotlarga asosan respublika bo'yicha jami 507 ta KSZ faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning umumiy yer maydoni 3487,5 gektarni tashkil etib, shundan 2728,1 gektar, ya'ni 78,2 foiz yer maydoni loyihalarga ajratilgan. Jami loyihalar soni 4814 ta. KSZlar faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirib borish

¹⁴ Raximova, D.N. (2023) “Opit povisheniya investitsionnogo potentsiala strani” International scientific and practical conference improving Uzbekistan's position in international ratings and indexes: theory, practice, and strategy. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10143045>


¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 9 martdagi “Kichik sanoat zonalari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida”gi 134-sonli qarori, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.03.2020 y., 09/20/134/0272-son

uchun har bir hududda yagona direksiya tashkil etilgan. KSZlarda jami qiymati 18,5 trln. so‘mlik 3328 ta loyiha tanlab olinib, amalga oshirish rejalashtirilgan¹⁶.



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasida joylashgan KSZ loyihalari bo‘yicha 2024-yilga tahliliy ma’lumot (loyihalar soni)¹⁷

Xorazm viloyati umumiy ko‘rsatkichlarda loyiha soni bo‘yicha Respublika darajasida 278 ta loyiha bilan faqat 6 foiz ulushga ega, shuningdek, eksport ko‘rsatkichlari ham 470,0 ming dollarni tashkil qilgan. Bundan ko‘rinadiki, Xorazm viloyatidagi loyihalar asosan ichki bozor uchun mo‘ljallangan mahsulot ishlab chiqarish bilan cheklanmoqda.




3-rasm. O‘zbekiston Respublikasida joylashgan KSZ loyihalari bo‘yicha tahliliy ma’lumot (ishlab chiqarish hajmi)¹⁸

¹⁶Manba: O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan. <https://www.mift.uz/stat.php>

¹⁷Manba: O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan. <https://www.mift.uz/stat.php>

¹⁸Manba: O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan. <https://www.mift.uz/stat.php>

Tahliliy ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Toshkent shahri va Namangan viloyatida KSZlar tashkil qilish va boshqarish sohasida boshqa hududlardan oldinlab ketgan, buni loyiha qiymati, ishlab chiqarish hajmi, eksport hajmi va yangi ishchi o'rinlaridan ko'rishimiz mumkin.



4-rasm. O'zbekiston Respublikasida joylashgan KSZ loyihalari bo'yicha tahliliy ma'lumot (eksport hajmi)¹⁹

Asosiy eksport, ya'ni 80,0 foizi (354,3 mln doll.) Toshkent shahri, Farg'ona, Namangan va Toshkent viloyatlariga to'g'ri kelmoqda. Bu nomutanosib rivojlanishning yana bir misoli.

Respublikada, xususan, Xorazmda KSZ faoliyati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-fevraldagi "Xorazm viloyatida davlat mulki obyektlarini tadbirkorlik subyektlariga realizatsiya qilish va kichik sanoat zonalarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3513 hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-apreldagi "Xorazm viloyatida qo'shimcha kichik sanoat zonalarini tashkil etish to'g'risida"gi 308-son qarorlari asosida olib borilmoqda.²⁰ Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi "Kichik sanoat zonalarini to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 134-son qarori²¹ bilan tartibga solinadi.

¹⁹Manba: O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan. <https://www.mift.uz/stat.php>

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 26.04.2018 yildagi 308-son O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 08.02.2018 y., № 07/18/3513/0671;

²¹O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 9 martdagi "Kichik sanoat zonalarini to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 134-sonli qarori, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.03.2020 y., 09/20/134/0272-son

Eksportning o'sishi (ayniqsa 2019–2024-yillarda) tashqi bozorlarning kengayganini ko'rsatadi, lekin yuqori import iqtisodiyotning tashqi mahsulotlarga qaramligini anglatadi.

Xorazm viloyatida KSZlar direksiyalar orqali boshqariladi, ammo xususiy sektorning faol ishtiroki va innovatsion loyihalarni jalb qilishda qiyinchiliklar mavjud. Bu, qisman, viloyatning geografik joylashuvi va iqtisodiy salohiyatining cheklanganligi bilan bog'liq.

Tadqiqot davomida Xorazm viloyatidagi kichik sanoat zonalarini boshqarishda normativ-huquqiy bazaning zamonaviy talablarga mos kelmasligi, natijalarni baholashning institutsional shakllari yo'qligi, prognoz qilishda eskirgan usullar qo'llanilishi, byurokratik kechikishlar, direksiyalar va markaziy organlar o'rtasida vakolatlar noaniqligi, infratuzilmani boshqarish va ta'minlash, auksion jarayonida va qarorlar qabul qilishda inson omili kuchliligi, malakali kadrlar va zamonaviy infratuzilma yetishmasligi kabi tizimli muammolar aniqlandi. Bunga qo'shimcha ravishda monitoring va investitsiya kuzatuv mexanizmlarining zaifligi, moliyaviy resurslar yetishmasligi, byurokratik tartiblar murakkabligi hamda uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarining yo'qligi KSZlar samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Xorazm viloyatida kichik sanoat zonalarini boshqaruv sohasidagi mavjud muammolar kompleks yondashuv orqali bartaraf etilishi mumkin. Huquqiy bazani soddalashtirish, infratuzilmani yaxshilash, moliyaviy resurslarni kengaytirish, boshqaruv organlariga vakolatlar berish, monitoring va baholash tizimlarini joriy etish, shuningdek, innovatsion va texnologik rivojlanishni rag'batlantirish KSZlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xorazm viloyati KSZlarining faoliyati respublika miqyosida muhim salohiyatga ega bo'lsa-da, hozirgi holatda ularning iqtisodiy samaradorligi va eksportga yo'naltirilganligi cheklangan. Ushbu muammolarni bartaraf etish orqali viloyat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish mumkin.

Dissertatsiyaning **“Kichik sanoat zonalarining boshqarish tizimini takomillashtirish istiqbollari”** mavzusidagi uchinchi bobida Xorazm viloyatidagi kichik sanoat zonasining boshqarish tizimini takomillashtirish yo'nalishlari va rivojlanish prognozlari (2030-yilgacha ishlab chiqilgan) tahlil qilinadi.

Xorazm viloyatida KSZlar soni 22 taga yetib, ularning umumiy yer maydoni 98,4 gektarni tashkil qilmoqda. Ayni paytda, mazkur zonalarda jami 196 ta loyiha rejalashtirilgan bo'lib, ularning umumiy qiymati 563,5 mlrd so'mga teng va 2694 ta yangi ish o'rni yaratilishi ko'zda tutilgan. Hozirgi kunga qadar 134,4 mlrd so'mlik 65 ta loyiha to'liq ishga tushirilgan, 429,1 mlrd so'mlik 130 ta loyiha esa bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Loyihalar sohasi bo'yicha tahlil qilinganda, qurilish materiallari 26, mebelsozlik 73, oziq-ovqat 34, tekstil 16 loyiha kabi yo'nalishlar ustunlik qilayotgani kuzatiladi.

Shunga qaramay, tizimda mavjud muammolar va ularning kelib chiqish sabablari tahlili boshqaruvni takomillashtirish zaruratini ko'rsatmoqda. Jumladan, quyidagi asosiy muammolar mavjud:

Amaldagi nizomlar elektron auksionlar mexanizmlariga mos emas, xususan,

yer maydonlari “E-auksion” orqali talablar va majburiyatlarsiz sotilishi loyihalarning samarasizligiga olib kelmoqda. 27,7 gektar yer maydonlari hali ham zaruriy transport, elektr, ichimlik suvi va internet infratuzilmasidan mahrum. Moliyalashtirish jarayonida yuqori garov talablari, lizing va faktoring xizmatlarining yetarlicha rivojlanmagani tadbirkorlik tashabbuslarini cheklab qo‘ymoqda.

Direksiyalar vakolatlarining chegaralanganligi, kadrlar malakasining pastligi va monitoring tizimining zaifligi samaradorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Hududiy ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar bilan hamkorlik yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan bo‘lib KSZ faoliyatini mahalliy yetkazib beruvchilar, ta’lim muassasalari va aholi bilan ko‘proq integratsiyalash, bandlik va kooperatsiya darajasini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ishlab chiqarish uskunalari jalb qilish, innovatsion texnoparklar va AKT infratuzilmasini rivojlantirish zarur.


Ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish, zamonaviy menejment usullarini tatbiq etish va xalqaro seminarlar tashkil etish muhim, bundan tashqari, KSZlarni yangi asosda tasniflash (sanoat parklari, texnoparklar, innoparklar) va ularni boshqarishda professional menejment, xususiy sektor ishtiroki hamda samarali qayta aloqa mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish taklif etiladi.

Xorazm viloyatida kichik sanoat zonalarini boshqarish tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari ularning faoliyat samaradorligini oshirish, investorlar uchun qulay muhit yaratish va mahalliy iqtisodiy o‘shishga zamin yaratish imkonini beradi. Yuqoridagi takliflarning amalga oshirilishi KSZning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi rolini sezilarli darajada kuchaytiradi.

Kichik sanoat zonalarida ishlab chiqarish maydonlari va yer uchastkalari taqsimotini investitsiya loyihalarining texnik infratuzilma tayyorligi (maydonlarning nomi, soni, tavsifi, joylashuvi, muhandislik-texnik kommunikatsiyalar bilan ta’minlanganlik darajasi) va elektron auksion shaffofligi bilan integratsiya qilishning kompleks modeli asosida samarali boshqaruvni tashkil etish mumkin.

Menejment nuqtayi nazaridan, mazkur jarayonlarni **kompleks model asosida integratsiya qilish** orqali boshqaruv samaradorligini sezilarli oshirish mumkin. Kichik sanoat zonalarida mahalliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, kichik va o‘rta biznes uchun qulay muhit yaratish, innovatsion ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishda muhim infratuzilma hisoblanadi. Amaliyotda ko‘p hollarda ishlab chiqarish maydonlari va yer uchastkalari taqsimoti texnik infratuzilma tayyorligi bilan uyg‘unlashmagan, elektron auksion tizimida ma’lumotlar to‘liq aks etmaydi yoki shaffoflik yetarli darajada ta’minlanmaydi (5-rasm).

Kichik sanoat zonalarida maydon taqsimotini texnik infratuzilma tayyorligi va elektron auksion shaffofligi bilan integratsiya qiluvchi kompleks model joriy etilishi investitsiya muhitini yaxshilaydi, boshqaruv samaradorligini oshiradi, shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlaydi, ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirish muddatini qisqartiradi, hududiy iqtisodiy o‘shishga xizmat qiladi.



5-rasm. Kichik sanoat zonalarida texnik infratuzilma va elektron auksion tizimining integratsiya qilishning kompleks modeli

Ayni paytda mamlakatimizda KSZlarni iqtisodiy boshqarishdagi o‘shini ta’minlash borasida quyidagi muammolar kuzatilmoqda:

- birinchidan, kichik sanoat zonalarida joylashtirish uchun loyihalarni tanlashning aniq mezonlari mavjud emas. Investitsiya loyihalarini ko‘rib chiqishda yangidan tashkil etilayotgan ish o‘rinlari soni, salohiyatli xorijiy sherik va investor – mamlakatning mavjudligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning ichki va tashqi bozorlarda talab qilinishi, eksport hajmi²²;

- ikkinchidan, kichik sanoat zonalarida joylashtirish va amalga oshirish uchun taklif etilayotgan investitsiya loyihalarini kelishib olish va ma’qullash mexanizmi amalda haddan tashqari murakkab hujjat ishlarini rasmiylashtirish bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelgan.

Hududiy sanoat salohiyatini kengaytirish va ish o‘rinlari yaratishni rag‘batlantirish maqsadida Xorazm viloyatida KSZni rivojlantirish bo‘yicha strategik dastur ishlab chiqildi. 2030-yilgacha mo‘ljallangan mazkur strategiya quyidagi asosiy maqsadlarni o‘z ichiga oladi:

KSZlar sonini 2030-yilga borib 36 taga yetkazish; investitsiyalar hajmini 800 mlrd so‘mga oshirish; 1000 ta yangi ish o‘rni yaratish; sanoat ishlab chiqarishini 8–12 foizga o‘stirish.

Strategik choralarni tahlil qilishda quyidagi multifaktorial regressiya modeli taklif etiladi:

²² Bababekova D. O‘zbekistonda kichik sanoat zonalarida rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari. // “XXI asr: fan va ta’lim masalalari” ilmiy elektron jurnali. №2, 2021 yil

$$\text{Samaradorlik} = \beta_0 + \beta_1 * \text{Investitsiyalar} + \beta_2 * \text{Sharoitlar} + \beta_3 * \text{Ishtirokchilar} + \varepsilon$$

Bu yerda β_1 — infratuzilmaga yo‘naltirilgan investitsiyalar ta’siri; β_2 — soliq imtiyozlari va subsidiya mexanizmlarining roli; β_3 — xususiy sektor ishtirokining natijadorligi; ε — tasodifiy omillar (boshqaruv sifati, kadrlar malakasi).

KSZlarni tashkil etish va boshqarish tizimini takomillashtirishning strategik yo‘nalishlar quyidagilardan iborat:

- 2030 yilgacha logistika markazlarni tashkil etish, quyosh va shamol energiyasi asosida 30 foizgacha energiya tejamkorligiga erishish;

- xalqaro ko‘rgazmalarda ishtiroki uchun subsidiya tizimi (2027 yildan); mahsulotlarni xalqaro bozorlarga chiqarish uchun sertifikatlash dasturlarini joriy etish orqali eksport salohiyatini oshirish;

- boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish tashkiliy jarayonlarni optimallashtirish, elektron auksionlar orqali yer uchastkalari va loyihalarni onlayn taqdim qilish va ma‘muriy kengash qarorlarini 3 kun ichida rasmiylashtirish;

- KSZ ishtirokchilari uchun avtomatik KSZ rezidenti maqomini berish va investitsiya shartlariga asoslangan maydon ajratish tizimini joriy etish.

Ssenariyli prognozlash va tarmoq ixtisoslashuviga asoslangan kompleks model asosida Xorazm viloyati kichik sanoat zonalarini 2030-yilga qadar rivojlantirishning prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqildi. Model orqali KSZlar rivojining real, optimistik va inersion ssenariylari ilmiy asosda shakllantirildi.

2-Jadval

2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlari

Yillar	KSZ soni	Yer maydoni (ga)	Loyiha soni	Investitsiya (mlrd. so‘m)	Ishlab chiqarish (mlrd. so‘m)	Eksport (mln doll.)	Ish o‘rinlari
2026	23	102,5	170	500	300	0,60	600
2027	24	106,0	190	580	350	0,75	700
2028	25	110,0	210	650	400	0,90	800
2029	26	113,5	230	720	450	1,05	900
2030	27	117,0	250	800	500	1,20	1000

2030-yilga qadar ishlab chiqilgan strategik yondashuv Xorazm viloyatidagi KSZlarning sifat jihatdan rivojlanishini ta‘minlaydi. Infratuzilma, moliyaviy va tashkiliy mexanizmlarning integratsiyasi orqali yangi ishlab chiqarish subyektlari yaratiladi, eksport salohiyati ortadi va hududiy iqtisodiy taraqqiyotga barqaror asos yaratiladi.

Kichik sanoat zonalarini samaradorligini baholash va oshirish uchun ko‘p chiziqli regressiya modelidan foydalanib, ommaviy ko‘rsatkichlar (qo‘shilgan qiymat, eksport ulushi, ishlab chiqarish diversifikatsiyasi indeksi, mahalliy lashtirish darajasi) asosida kompleks (iqtisodiy, tashkiliy, texnologik va huquqiy) integral ko‘rsatkichlar tizimi takomillashtirish taklif etildi. Tadqiqot natijasida iqtisodiy, tashkiliy, texnologik va huquqiy omillarni qamrab olgan kompleks integral ko‘rsatkichlar tizimi takomillashtirildi.

Ilmiy yangilik sifatida kichik sanoat zonalarini tashkil etish samaradorligini baholash uchun integral model ishlab chiqildi. Model formulasi quyidagicha:

$$I_{KSZ} = 0,35 \times HIS + 0,23 \times MR + 0,17 \times BI + 0,25 \times IM,$$

bu yerda I_{KSZ} — samaradorlikning integral ko‘rsatkichi; HIS — hududiy iqtisodiy salohiyat; MR — mahalliy resurslar; BI — bozor infratuzilmasi; IM — institutsional muhit barqarorligi (3-jadval).

3-Jadval

Xorazm viloyatidagi KSZlarini joylashtirish va tashkil etish samaradorligining integral baholash natijalari²³

№	KSZ nomi	HIS 0.35	MR 0.23	BI 0.17	IM 0.25	Integral indeks (I_{ksz})
1	“Avtoxizmat” KSZ (Urganch shahri)	1	0,42	1	1	0,87
2	“Urganchtransgaz” KSZ (Urganch shahri)	1	0,55	1	1	0,89
3	“Pivo zavodi” KSZ (Urganch tumani)	0,85	0,63	1	1	0,86
4	“Pitnak QUSH” KSZ (Tuproqqal’a tumani)	0,8	0,48	0,95	1	0,82
5	“Shovot podshipnik” KSZ (Shovot tumani)	0,8	0,46	1	1	0,83
6	“ZAUNGUR” KSZ (Xiva tumani)	0,8	0,71	1	1	0,88
7	“Arablar” KSZ (Qo‘shko‘pir tumani)	0,8	0,69	1	1	0,87
8	“Do‘stlik” KSZ (Yangiariq tumani)	0,8	0,52	1	1	0,84
9	“Qiyot” KSZ (Shovot tumani)	0,8	0,41	1	1	0,82
10	“Mangitlar” KSZ (Yangibozor tumani)	0,8	0,3	1	1	0,79
11	“Pichoqchi” KSZ (Hazorasp tumani)	0,8	0,65	1	1	0,86
12	“Gulshan-2” KSZ (Xiva shahri)	0,9	0,58	1	1	0,87
13	“Gurlan” KSZ (Gurlan tumani)	0,8	0,74	1	1	0,88
14	“Gulshan” KSZ (Bog‘ot tumani)	0,8	0,49	0,7	1	0,77
15	“Aloqaliko‘l” KSZ (Hazorasp tumani)	0,8	0,82	1	1	0,9
16	“Yovg‘ir” KSZ (Qo‘shko‘pir tumani)	0,8	0,57	1	1	0,85
17	“Hazorasp Don” KSZ (Hazorasp tumani)	0,8	0,28	0,65	1	0,72
18	“Yuqori boshqir” KSZ (Yangibozor tumani)	0,8	0,34	0,75	1	0,75
19	“Mebelsozlik” KSZ (Xonqa tumani)	0,8	0,79	0,85	1	0,87
20	“Obod qurilish” KSZ (Tuproqqal’a tumani)	0,8	0,6	0,7	1	0,79
21	“Farmsanoat” KSZ (Urganch shahri)	1	0,38	0,2	1	0,66
22	“Charm sanoat” KSZ (Hazorasp tumani)	0,8	0,45	0,15	1	0,62

Izoh: Integral indeks 0–1 oralig‘ida hisoblanib, qiymatning o‘sishi KSZni joylashtirish va tashkil etish samaradorligining oshishini ifodalaydi.

Modelning vazn koeffitsiyentlari ekspert baholash usuli orqali, Xorazm viloyatidagi 28 nafar tadbirkor o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga asosan shuningdek, iqtisodiy-statistik tahlil natijalari 22 ta KSZ kesimida o‘rganilib, hududiy iqtisodiy salohiyat, mahalliy resurslar, bozor infratuzilmasi va institutsional muhit asosiy ta’sir etuvchi omillar sifatida namoyon bo‘ldi. Urganch shahri va yaqin hududlardagi “Urganchtransgaz”, “Aloqaliko‘l”, “ZAUNGUR”, “Gurlan” va “Mebelsozlik” KSZlarida integral indeks yuqori, “Farmsanoat”, “Charm sanoat” va “Hazorasp Don” KSZlarida esa past bo‘lgani aniqlandi. Normalashtirish va integrallash usuli natijalariga ko‘ra, KSZ samaradorligi asosan hududiy salohiyat va institutsional muhit barqarorligiga bog‘liq bo‘lib, yangi KSZlarni tashkil etishda ushbu omillar ustuvor hisobga olinishi taklif etiladi.

²³O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan. <https://www.mift.uz/stat.php>.

Bir qator muammolarni bartaraf etish maqsadida kichik sanoat zonalarida takroriy tanlovda yagona talabgor ishtirok etgan holatlar uchun raqamlashtirilgan kompleks baholash va qaror qabul qilish modeli taklif etildi. Taklif etilayotgan modelda investitsiya buyurtmanomalari elektron platforma orqali qabul qilinib, loyihalar tarmoq ixtisoslashuvi hamda hududiy resurslar salohiyati mezonlari asosida avtomatik baholanadi. Baholash natijasida shakllangan integral indeks Ma'muriy kengash a'zolariga elektron shaklda taqdim etiladi.

Ma'muriy kengash qaror qabul qilish jarayoni elektron kollegial ovoz berish mexanizmi orqali amalga oshirilib, har bir qaror raqamli protokol bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu mexanizmni elektron-onlayn auksion instituti bilan integratsiya qilish orqali qaror qabul qilish jarayonining ochiqligi va nazorat qilinishi ta'minlanadi.

4-Jadval

Takroriy tanlovda investitsiya loyahasini ko'rib chiqish jarayonlarining raqamlashtirishdan oldin va keyingi holati taqqoslama jadvali²⁴

№	Jarayon bosqichlari	Amaldagi holat (kun)	Taklif etilgan model (kun)	Qisqarish darajasi (%)
1	Hujjatlarni qabul qilish va ro'yxatga olish	8-10	2-3	65-70
2	Tarmoq ixtisoslashuvi bo'yicha tekshiruv	10-12	5-6	45-50
3	Hududiy resurslar bilan moslikni baholash	10-15	5-6	50-60
4	Ma'muriy kengash muhokamasi	12-15	8-9	30-35
5	Qarorni rasmiylashtirish	5-8	3-4	40-45
Jami		50-65	30-40	30-40

4-jadvalda raqamlashtirishdan oldin investitsiya loyihalarini ko'rib chiqish jarayoni 50-65 kuni tashkil etgani, taklif etilgan raqamli modelda hujjat aylanmasi, baholash va qaror qabul qilish bosqichlari avtomatlashtirilishi hisobiga umumiy muddat 30-40 kungacha qisqarishiga erishish, shu asosda tanlov muddatini qisqartirish darajasini ($30 \leq M_{LT} \leq 40\%$) oralig'ida saqlash mumkinligi aniqlangan.

5-Jadval

Lot va ishlab chiqarish maydonlarini taqsimlashda inson omili ta'sirining tarkibiy tahlili²⁵

№	Qaror qabul qilish bosqichlari	Bajaruvchi sub'ekt	Ta'sir darajasi (%)
1	Texnik-iqtisodiy baholash	Avtomatik algoritim	15
2	Tarmoq ixtisoslashuvi bo'yicha reyting	Avtomatik tizim	15
3	Kompleks indeksni hisoblash	Avtomatik tizim	10
4	Ma'muriy kengash muhokamasi	Inson (kollegial)	30
5	Yakuniy qaror qabul qilish	Inson (ovoz berish)	30
Jami			100

5-jadvalda investitsiya loyahasini baholash jarayonining 40 foizi avtomatlashtirilgan bosqichlarga to'g'ri keladi, ma'muriy kengashning kollegial muhokamasi va ovoz berishi inson ishtirokida amalga oshirilib ularning umumiy ulushi 60 foizni tashkil etadi. Shu sababli lot (maydon) taqsimoti jarayonida inson

²⁴Manba: muallif tomonidan shakllantirilgan.

²⁵Manba: muallif tomonidan shakllantirilgan.

omili ta'siri 60 foizdan oshmaslik darajasi ($T_{IO} \leq 60\%$) bilan cheklandi. KSZlarni joylashtirish va tashkil etishda yuqoridagi omillarning optimal nisbatda hisobga olinishi hududning investitsion jozibadorligini oshirish, ishlab chiqarish zanjirlarini integratsiyalash hamda yangi ish o'rinlari yaratishga xizmat qiladi. Shu bilan tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan integral baholash usuli KSZ boshqaruv tizimini takomillashtirishning ilmiy asoslangan mexanizmi sifatida tavsiya etiladi.

Taklif etilgan model va integral ko'rsatkichlar tizimini amaliyotga joriy etish iqtisodiy tahlil va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda amaliy qo'llanilishi mumkin. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda hududiy hokimliklar qoshidagi kichik sanoat zonalarini direksiyalari ushbu modeldan foydalanib, zonalar faoliyati samaradorligini aniqlash, resurslar taqsimotini rejalashtirish, subsidiya va imtiyozlarni maqsadli yo'naltirish imkoniga ega bo'ladi. Shuningdek, modelni har bir hudud kesimida statistik ma'lumotlar bazasi bilan integratsiya qilish orqali dinamik monitoring tizimini yaratish imkoniyati mavjud. Taklif etilgan modelni amaliyotda qo'llash orqali kichik sanoat zonalarining iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshligi oshadi. Har bir zona bo'yicha ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini prognoz qilish, resurslardan foydalanish samarasini baholash hamda rejalashtirishdagi xato ehtimollarini kamaytirish imkoni yaratiladi.


Ilmiy yangilik kichik sanoat zonalarini raqamli tahlil va modellashtirish orqali boshqaruvni takomillashtirishga qaratilgan. Bu tadbirkorlik muhitini samarali qilish, ish o'rinlari yaratish va hududiy ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga xizmat qiladi (6-rasm).

Qo'shilgan qiymat va mahalliyashtirish darajasini oshirish budjet tushumlari, eksport salohiyati va innovatsion faoliyatni rag'batlantirishni ta'minlaydi. Sanoat zonalarini baholash va prognozlashning integratsiyalangan kompleks modeli hududiy resurslar va tarmoq ixtisoslashuviga asoslanadi.

Ikkinchi ilmiy yangilikning konseptual mohiyati, tadqiqot doirasida kichik sanoat zonalarida ishlab chiqarish maydonlari va yer uchastkalarini taqsimlash jarayonida investitsiya loyihalarining mavjud texnik infratuzilma bilan o'zaro muvofiqlik darajasini baholashni elektron auksion platformasi asosida amalga oshirish orqali investorlarga infratuzilma jihatdan yuqori tayyorlikka ega bo'lgan maydonlarni ustun tarzda taqdim etishni ta'minlash asoslandi. Ushbu yangilikning asosiy mohiyati, investitsiya loyihalarining texnik infratuzilma tayyorligi darajasini (maydonlar soni, tavsifi, joylashuvi va muhandislik-texnik kommunikatsiyalar bilan ta'minlanganlik holati) aniq baholash jarayonini elektron auksion platformasi bilan integratsiya qilish. Bu yondashuv kichik sanoat zonalarida yer va binolarni taqsimlash jarayonida shaffoflikni ta'minlaydi, ishlab chiqarish infratuzilmasining haqiqiy holatini inobatga olgan holda qaror qabul qilish imkonini yaratadi. Ilmiy yangilikning afzalligi shundaki, u an'anaviy ma'lumot almashinuv tizimini raqamli auksion modeli bilan uyg'unlashtirib, investitsiya salohiyati yuqori bo'lgan maydonlarni aniq tanlash imkoniyatini beradi.

Taklif etilgan integratsiyalangan modelni amaliyotga joriy etish O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, hududiy hokimliklar, hamda kichik sanoat zonalarini direksiyalari faoliyatida keng qo'llanilishi mumkin. Elektron auksion platformasi bilan bog'langan infratuzilma baholash moduli orqali har bir

zonadagi maydonlar holati avtomatik ravishda yangilanib, investorlar uchun ochiq ma'lumot sifatida taqdim etiladi.



6-rasm Kichik sanoat zonalarini samaradorligini baholash va oshirishning sxemasi.

Bu tizim tadbirkorlar va davlat tashkilotlari o'rtasidagi axborot almashinuvini tezlashtiradi, loyihalarni tanlashda inson omilining ta'sirini kamaytiradi va hududlar

kesimida aniq ma'lumotlar bazasini shakllantiradi. Shuningdek, ushbu modelni mavjud "E-auksion" yoki "Invest.gov.uz" platformalari bilan integratsiya qilish texnik jihatdan to'liq amalga oshirish imkoniyatiga ega. Bu tizimning joriy etilishi uchun huquqiy-me'yoriy asos sifatida 2020-yil 9-martdagi VMQ №134 qarori doirasida qo'shimcha modullarni yaratish imkoniyati mavjud. Taklif etilgan modelni joriy qilish orqali kichik sanoat zonalarida yer va binolar taqsimotida yuqori samaradorlikka erishish mumkin bo'ladi. Birinchidan, infratuzilma tayyorligi yuqori bo'lgan maydonlar ustuvor tarzda investorlarga taklif etiladi, bu esa loyihalarning amalga oshish ehtimolini oshiradi. Ikkinchidan, elektron baholash tizimi inson omili va subyektiv qarorlarni minimallashtirib, avtomatlashtirilgan reyting tizimi asosida investitsiya loyihalarini tanlashni ta'minlaydi. Uchinchidan, joriy etilgan mexanizm hududiy boshqaruv organlariga real vaqt rejimida ma'lumot olish va strategik qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi. Bu o'z navbatida kichik sanoat zonalarini faoliyatida raqamli boshqaruv madaniyatini shakllantiradi.

Ilmiy yangilikni amaliyotga joriy etish natijasida kichik sanoat zonalarida ishlab chiqarish maydonlaridan foydalanish samaradorligi keskin oshadi. Investorlar uchun ma'lumotlar ochiq va ishonchli bo'lib, investitsion muhitning jozibadorligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Hududlardagi infratuzilmaviy tayyor maydonlardan unumli foydalanish orqali yangi ish o'rinlari yaratilishiga, mahalliy xomashyodan foydalanish kengayishiga, ishlab chiqarish kooperatsiyasi va klaster munosabatlari mustahkamlanishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, auksion modelining raqamli integratsiyasi korrupsiya xavfini kamaytiradi va davlat resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Ushbu ilmiy yangilik kichik sanoat zonalarini boshqarishda shaffoflik, raqamlashtirish va samaradorlikni ta'minlaydigan ilmiy-nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega tizim sifatida xizmat qiladi.

Uchinchi ilmiy yangilikning konseptual mohiyati, dissertatsiya tadqiqotida taklif etilgan ilmiy yangilik kichik sanoat zonalarida takroriy tanlovda yagona talabgorning investitsiya buyurtmanomasini tarmoq ixtisoslashuvi va hududiy resurslar salohiyati mezonlari asosida kompleks baholash, Ma'muriy kengash tomonidan qaror qabul qilishning kollegial ovoz berish jarayonini to'liq raqamlashtirish va ushbu jarayonni elektron-onlayn auksion instituti bilan integratsiyalash orqali loyiha tanlovlarini o'tkazish muddati ($30 \leq \text{MLT} \leq 40\%$) hamda joy taqsimoti bo'yicha inson omili ta'siri ($\text{TIO} \leq 60\%$)ni qisqartirishning miqdoriy chegaralari asoslangan.


Taklif etilayotgan modelda investitsiya buyurtmanomalari elektron platforma orqali qabul qilinib, loyihalar tarmoq ixtisoslashuvi hamda hududiy resurslar salohiyati mezonlari asosida avtomatik baholanadi. Baholash natijasida shakllangan integral indeks Ma'muriy kengash a'zolariga elektron shaklda taqdim etiladi.

Ma'muriy kengash qaror qabul qilish jarayoni elektron kollegial ovoz berish mexanizmi orqali amalga oshirilib, har bir qaror raqamli protokol bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu mexanizmni elektron-onlayn auksion instituti bilan integratsiya qilish orqali qaror qabul qilish jarayonining ochiqligi va nazorat qilinishi ta'minlanadi.

Taklif etilgan boshqaruv modeli natijasida investitsiya loyihalarini tanlab olish muddatini 30–40 foizga qisqartirish, joy va ishlab chiqarish maydonlarini taqsimlash jarayonida inson omili ta'sirini 60 foizdan oshmaslik darajasiga tushirish imkoniyati

yaratiladi. Investitsiya loyihalarini joriy qilishda tarmoq muvozanati va hududiy resurslardan oqilona foydalanish ta'minlanadi. Buning natijasida ishlab chiqarish maydonlaridan samarali foydalanishni, yangi ish o'rinlari yaratilishini va kichik biznes subyektlarining faolligini oshirishi kutiladi.

To'rtinchi ilmiy yangilikning konseptual mohiyati, tadqiqot doirasida taklif etilgan Kichik sanoat zonalarida ssenariyli prognozlash va tarmoq ixtisoslashuviga asoslangan kompleks modeli maqsadli indikatorlari (KSZ soni va maydonining yillik o'sishi, investitsiya hajmi, eksport hajmi, yangi ish o'rinlari yaratilishi, infratuzilmasi qamrovi) asosida Xorazm viloyati kichik sanoat zonalarini rivojlantirish uchun 2030-yilgacha mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlarini shakllantirishga qaratilgan. Ushbu model KSZlarning 2030-yilgacha mo'ljallangan o'sish sur'atlarini ilmiy asosda belgilash, investitsiya, eksport va infratuzilma qamrovini strategik bashorat qilish imkonini beradi. Modelda Xorazm viloyatining iqtisodiy tuzilishi, tarmoq salohiyati va hududiy resurslar xususiyatlari hisobga olingan bo'lib, ssenariyli prognozlash usuli orqali sanoat zonalarini rivojlanishining real, optimistik va inersion ssenariylari ishlab chiqilgan



7-rasm Tarmoq ixtisoslashuvi va hududiy resurslar salohiyati asosida baholash tizimi

Taklif etilgan prognozlash modeli Xorazm viloyati hokimligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, hamda KSZlar direksiyalari faoliyatida amaliy qo'llanilishi mumkin. Mazkur modelning elektron formatdagi hisoblash modullari orqali KSZ rivojlanish tendensiyalarini yillik rejalashtirish, hududiy investitsiya dasturlarini optimallashtirish, sanoat tarmoqlarining ixtisoslashuv darajasini baholash va infratuzilmaviy ehtiyojlarni prognozlash imkoni yaratiladi. Shuningdek, ushbu model mahalliy hokimiyatlar va vazirliklar tomonidan investitsiya loyihalarini tanlashda, hududiy sanoat siyosatini shakllantirishda va KSZlar faoliyati samaradorligini monitoring qilishda metodologik asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

XULOSA

KSZlarni rivojlantirishning iqtisodiy asoslarini tahlil qilishda samaradorlikni baholash ham muhim albatta. Bunda, avvalo, zona hududida joylashtiriladigan tadbirkorlik subyektlarining investitsion loyihalarining rentabelligi va iqtisodiy nafini aniqlash zarur. Keyingi bosqichda zona hududini tayyorlash, shuningdek, unga muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari va xizmat ko'rsatish obyektlarini barpo etishga sarflanadigan xarajatlarni hisobga olgan holda, zonaning umumiy iqtisodiy samaradorligini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ko'rsatkich KSZ faoliyatining iqtisodiy asoslangan darajasini belgilab beruvchi muhim indikator hisoblanadi. Bundan tashqari, KSZlarining ijtimoiy samaradorligini, ya'ni yangi ish o'rinlarining yaratilishi, aholi daromadlarining oshishi kabi ijobiy ta'sirlarni baholash hamda ularning atrof-muhitga ekologik ta'sirini har tomonlama tahlil qilish zonalarni tashkil etishning maqsadga muvofiqligini asoslashda muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Tahlillar jarayonida kichik sanoat zonalarini joylashtirish va tashkil etishni boshqarish samaradorligini oshirishda kichik sanoat zonalarini tashkil etishning asosiy omillari yordamida integral baholash hududiy iqtisodiy salohiyat ($HIS = 0,35$), mahalliy resurslar ($MR = 0,23$), bozor infratuzilmasi ($BI = 0,17$) va institutsional muhit ($IM = 0,25$) omillari ta'sir chegarasini belgilash orqali takomillashtirildi.

Integral baholash natijalari shuni ko'rsatdiki, Urganch shahri va unga yaqin hududlarda joylashgan kichik sanoat zonalarida samaradorlik darajasi yuqori bo'lib, bu hududlarda infratuzilma ta'minoti va boshqaruv mexanizmlari nisbatan rivojlangan. Ayrim hududlardagi KSZlarda resurslardan foydalanish samaradorligining pastligi va infratuzilma muammolari integral ko'rsatkichning kamayishiga olib kelmoqda.

KSZlarni rivojlantirishda hududiy yondashuvni kuchaytirish, infratuzilmani rejali ravishda takomillashtirish, institutsional muhitni barqarorlashtirish zarurligi aniqlandi. Integral baholash natijalari davlat va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarda qo'llanilishi mumkin bo'lib, ishlab chiqilgan model KSZlarning kelgusi rivojlanish ustuvorliklarini belgilashda amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.

Kichik sanoat zonalarida takroriy tanlovda yagona talabgorning investitsiya buyurtmanomasini tarmoq ixtisoslashuvi va hududiy resurslar salohiyati mezonlari asosida kompleks baholash, Ma'muriy kengash tomonidan qaror qabul qilishning kollegial ovoz berish jarayonini to'liq raqamlashtirish va ushbu jarayonni elektron-onlayn auksion instituti bilan integratsiyalash orqali loyiha tanlovlarini o'tkazish muddati ($30 \leq MLT \leq 40\%$) hamda joy taqsimoti bo'yicha inson omili ta'siri ($TIO \leq 60\%$)ni qisqartirishning miqdoriy chegaralari asoslangan.

Tadqiqotlar natijasida KSZlarda takroriy tanlov yagona ishtirokchi bilan o'tganda, loyihalarni baholash va qaror qabul qilish jarayonlarini raqamlashtirish zarurligi asoslab berildi. Bu boshqaruv tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

KSZlarining boshqaruv faoliyatini samaradorligini aniqlash uchun doimiy monitoring va tahlil tizimi ishlab turishi kerak. Bu tizim raqamli platformalar asosida ishlab chiqilishi va ishlab chiqarish hajmi, eksport ko'rsatkichlari, ish

o‘rinlari soni, infratuzilma foydalanish darajasi kabi parametrlarni real vaqt rejimida kuzatish imkonini berishi lozim. Shunda tahlil va boshqaruv qarorlari tezkor ravishda qabul qilinadi. Bunday tizim orqali muammolarni erta aniqlash va yechim topish imkoniyati paydo bo‘ladi.

KSZni tashkil etish va boshqarishning asosiy tamoyillari sifatida qulay investitsiya muhitini yaratish va investorlarni jalb qilish. Infratuzilma bilan ta‘minlash va texnik xizmat ko‘rsatish imkoniyatini kengaytirish, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shu jumladan soliq imtiyozlari va subsidiyalar, rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish, sanoat faoliyatini monitoringi muhim sanaladi. Kadrlar tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish. Ushbu tamoyillar dunyoning turli mamlakatlarida muvaffaqiyatli amalga oshirilgan va O‘zbekiston Respublikasida, xususan, Xorazm viloyatida ham qo‘llanilishi mumkin deb hisoblaymiz.

KSZlarini samarali tashkil etish va boshqarish tizimini rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. KSZ boshqaruvini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish maqsadida direksiyalarni qayta shakllantirish, Nizomni yangilash va tadqiqot takliflarini kiritish, qayta tiklanuvchi energiya korxonalarini tashkil qilish, Startap markazlari bilan bog‘lash, ijara to‘lovlarini oldindan 100% miqdorda amalga oshirish, logistika va biznes-rejalarni soddalashtirish, monitoring va baholash mexanizmlarini joriy etish, QQSdan ozod qilish hamda badal to‘lashning yagona tartibini ishlab chiqish, veb sayt va murojaatlarning to‘liq imkoniyatlarini ta‘minlash, xodimlar xizmati va xorijiy professional mutaxassislarini jalb qilish lozim.

2. Respublikamizdagi KSZlarining ijtimoiy-iqtisodiy ta‘sirini yanada chuqurroq tahlil qilish, ilg‘or mamlakatlarning KSZlarini qiyosiy o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Qolaversa, kelgusidagi ilmiy izlanishlar barqaror taraqqiyotni stimullashtirishda KSZlarining tutgan o‘rni hamda ularning ekologik va ijtimoiy muammolarni hal etishdagi potensialiga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiqdir.

3. KSZ O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy o‘sishi va taraqqiyotining drayveri bo‘lishi, tadbirkorlarning effektiv faoliyati uchun qulay sharoitlarni yaratishi lozim. Ushbu mavjud potensialni to‘liq ro‘yobga chiqarish maqsadida infratuzilma bilan bog‘liq muammolarni yechish, moliyalashtirishni qayta ko‘rib chiqish va moslash, mahalliy iqtisodiyot bilan integratsiyani chuqurlashtirish, nizom va tartiblarni optimallashtirish, texnologiyalarni modernizatsiya qilishga o‘xshagan chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali KSZlarini boshqarishga tizimli yondashuv zarur.

4. KSZlarining barqaror rivojlanishini ta‘minlash maqsadida investorlar uchun samarali rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish, moliyalashtirish manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, tartibga solish jarayonlarini soddalashtirish hamda infratuzilmani modernizatsiya qilishga yo‘naltirilgan strategik investitsiyalarni amalga oshirishlari zarur.

5. KSZ menejerlari boshqaruv salohiyatini kuchaytirish, zonalar o‘rtasida o‘zaro manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va innovatsion faollikni rag‘batlantirish orqali samaradorlikni oshirishlari mumkin. Umumiy foydalanishdagi infratuzilma obyektlaridan foydalanish orqali ilg‘or texnologik tajribalarni tatbiq etish KSZlar faoliyatining raqobatdoshligiga xizmat qiladi.

6. KSZlarining rivojlanishi hududning iqtisodiy o‘shishiga hissa qo‘shishi mumkinligini isbotlamoqda. Xorazmdagi KSZlarining muvaffaqiyati ushbu yondashuv respublika darajasida ham samarali bo‘lishi mumkinligidan dalolat beradi. KSZlarini boshqarish puxta rejalashtirish va aniq qarorlarni talab qiladi. Ushbu yo‘nalishda tadqiqotlarni davom ettirish zarur.

7. KSZlarini samarali tashkil etishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri – klaster tizimini joriy etishdir. Bu modelda har bir zona muayyan tarmoq yoki mahsulot turiga ixtisoslashadi, masalan, to‘qimachilik, oziq-ovqat sanoati, yoki mashinasozlik. Klasterning ishtirokchilari – ishlab chiqaruvchilar, xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar, ta‘lim va ilmiy markazlar o‘zaro kooperatsiya asosida faoliyat yuritadi. Bunday yondashuv resurslardan oqilona foydalanish, innovatsiyalarni joriy etish va mahsulot raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, hududiy klasterlar iqtisodiy integratsiyani kuchaytiradi va mahalliy ish o‘rinlari sonini ko‘paytirish imkonini yaratadi.

8. Zamonaviy sanoat rivojlanishi texnologiyalar va innovatsiyalarga bog‘liq. Shu bois KSZlar hududida texnologik transfer markazlarini tashkil etish, bu markazlarni mahalliy ishlab chiqaruvchilarga ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirishda, yangi mahsulot turlarini ishlab chiqishda va xalqaro standartlarga mos sifat tizimini joriy etishda amaliy yordam ko‘rsatadi. Ilmiy tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda ilmiy-amaliy loyihalar yo‘lga qo‘yilishi orqali startaplar uchun akselerator dasturlari ishlab chiqilishini tavsiya etiladi.

9. KSZda ishlab chiqarilgan mahsulotning bozorlarga tez, arzon, sifatli yetkazilishini ta‘minlash uchun logistika markazlarini tashkil etish kerak bo‘ladi. Temir yo‘l va avtomobil yo‘llari bilan bog‘lanish, chegara postlari bilan muvofiqlashgan eksport yo‘nalishlari, bojxona xizmatlarini soddalashtirish tadbirkorlar uchun katta imkoniyat yaratadi. Shuningdek, KSZlarida mahsulotni eksportga tayyorlash, sertifikatlash va qoplash bo‘yicha yagona xizmat markazlari tashkil etish tavsiya etiladi.

10. KSZlarda faoliyat yurituvchi tadbirkorlar uchun imtiyozli kredit va lizing mahsulotlarini joriy etish, shuningdek, soliq va bojxona yengilliklarini taqdim etish zarur. Davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilma va ishlab chiqarish obyektlarini barpo etish sarmoyalar oqimini jadallashtiradi. Shu bilan birga, xalqaro moliya institutlari va grant dasturlarini jalb qilish orqali investitsiya bazasini kengaytirish, investorlar uchun xatarlarni kamaytirish maqsadida esa davlat kafolati tizimini yo‘lga qo‘yish ustuvor vazifa hisoblanadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.04/2025.27.12.I.01.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ АКАДЕМИИ ГОСУДАРСТВЕННОЙ
ПОЛИТИКИ И УПРАВЛЕНИЯ ПРИ ПРЕЗИДЕНТЕ РЕСПУБЛИКИ
УЗБЕКИСТАН**

**АКАДЕМИЯ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ И
УПРАВЛЕНИЯ ПРИ ПРЕЗИДЕНТЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

АХМЕДОВ ЗАФАР КАДИРОВИЧ

**СОЗДАНИЕ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ
МАЛЫМИ ПРОМЫШЛЕННЫМИ ЗОНАМИ**

08.00.13 – Менеджмент

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2025.3.PhD/Iqt5851

Диссертация выполнена в Академии государственной политики и управления при Президенте Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.dsba.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Холов Ақтам Хатамович**
доктор философии (PhD) по экономическим наукам, доцент

Официальные оппоненты: **Рахимова Дилфуза Нигматовна**
доктор экономических наук, профессор

Умарова Гузал Гайратовна
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация: **Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека**

Защита диссертации состоится « 20 » февраля 2026 г. в 15:00 часов на заседании Научного совета DSc.04/2025.27.12.I.01.03 по присуждению ученых степеней при Академии государственной политики и управления при Президенте Республики Узбекистан. (Адрес: 10003, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, д. 45. Тел.: (+99871) 232-60-80; факс: (+99871) 232-60-66; e-mail: info@dsba.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Академии государственной политики и управления при Президенте Республики Узбекистан. (зарегистрирована за № 381) (Адрес: 100066, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, д. 45. Тел.: (+99871) 232-60-80; факс: (+99871) 232-60-66; e-mail: info@dsba.uz).

Автореферат диссертации разослан « 9 » февраля 2026 г.
(протокол реестра рассылки № 1 от « 9 » февраля 2026 г.)

Б.Э. Ташмурадова
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней,
доктор экономических наук,
профессор

У.У. Пардаев
Секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней,
доктор экономических наук, доцент

Д.Н. Рахимова
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор экономических наук, профессор

ВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В настоящее время в мире реформирование системы создания и управления малыми промышленными зонами, внедрение в них современных технологий, а также их развитие на основе инноваций и государственно-частного партнёрства приобретают приоритетное значение для обеспечения устойчивого регионального развития и привлечения иностранных инвестиций. «В условиях перехода к зелёной экономике в мире большое значение приобретает формирование в малых промышленных зонах эко-индустриальных парков и отраслевых кластеров, основанных на новых трендах, а также организация в промышленных зонах производственных цепочек на базе цифровой экономики и технологий искусственного интеллекта для оптимизации деловой деятельности»²⁶. В связи с этим значение совершенствования системы создания и управления малыми промышленными зонами постоянно возрастает.

На мировом уровне вопрос совершенствования системы создания и управления малыми промышленными зонами в условиях глобализации и устойчивого развития превращается в одно из приоритетных направлений научных исследований. К числу приоритетных направлений научных исследований в данной сфере относятся: стимулирование инноваций для малых и средних предприятий через кластеры, расширение деятельности по повышению экономических преимуществ и снижению экологических рисков, концентрация отраслей с высокой добавленной стоимостью за счёт развития малых промышленных зон, оптимизация цепочек поставок, внедрение ресурсосберегающих технологий, институциональная поддержка предпринимательства, формирование территорий коллективных инноваций, цифровизация малых промышленных кластеров, создание зелёных промышленных зон, а также разработка эффективных моделей управления малыми промышленными зонами.

В Новом Узбекистане уделяется особое внимание совершенствованию системы создания и управления малыми промышленными зонами. В Стратегии «Узбекистан – 2030» ускоренное развитие промышленности, расширение производственной деятельности в регионах и всесторонняя поддержка местных субъектов предпринимательства определены в качестве приоритетного направления²⁷. Территориальное расширение инфраструктуры малых промышленных зон (МПЗ) является одним из важных направлений стратегии по повышению региональных промышленных показателей и привлечению инвестиций. В обеспечении реализации стратегии особое

²⁶ Marta Mackiewicz, Marta Götz; The role of clusters in advancing Industry 4.0 solutions: insights from the Polish automotive context. *Digital Policy, Regulation and Governance* 30 April 2024; 26 (4): 357–374. <https://doi.org/10.1108/DPRG-07-2023-0098>; New Trends in Special Economic Zones: Opportunities for Developing Countries. // https://iap.unido.org/articles/new-trends-special-economic-zones-opportunities-developing-countries?utm_source.

²⁷Указ Президента Республики Узбекистан № УП-158 от 11.09.2023 года // Национальная база данных законодательства, 26.03.2025 г., № 06/25/56/0274. URL: <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

значение имеют вопросы индустриализации малого бизнеса, создания современных производственных площадок и их обеспечения инженерно-коммуникационными сетями. В повышении регионального промышленного потенциала создание благоприятных условий для местных производителей через малые промышленные зоны, а также совершенствование системы их управления рассматривается как одна из актуальных задач.

«За последние пять лет в Узбекистане количество зарегистрированных предприятий в промышленной сфере демонстрирует устойчивый рост. Если в 2021 году их число составляло 91 829, то к 2025 году данный показатель достиг 113 059. Совокупный рост за пять лет составил 21 230 предприятий, что соответствует увеличению на 23,1 %»²⁸.

В действующих на сегодняшний день нормах законодательства, несмотря на то, что определён механизм создания дирекций по управлению малыми промышленными зонами, показатели эффективности деятельности самих зон чётко не установлены, что свидетельствует о необходимости проведения углублённого анализа и изучения в данном направлении. Исходя из вышеизложенного, важное значение приобретает исследование процесса совершенствования управления малыми промышленными зонами на региональном уровне. С учётом существующей ситуации исследование вопросов совершенствования создания и управления малыми промышленными зонами является актуальной задачей.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, намеченных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-16 «О Государственной программе по реализации Стратегии „Узбекистан – 2030“ в Год охраны окружающей среды и „зелёной экономики“» от 30 января 2025 года, № УП-41 «О дополнительных мерах по повышению эффективности деятельности специальных экономических и промышленных зон» от 4 марта 2025 года, № УП-37 «О Государственной программе года поддержки молодёжи в рамках Стратегии „Узбекистан – 2030“» от 21 февраля 2024 года, № УП-158 «О Стратегии „Узбекистан – 2030“» от 11 сентября 2023 года, № УП-153 «О дополнительных мерах по повышению эффективности деятельности специальных экономических, малых промышленных, молодёжных промышленных и предпринимательских зон» от 13 июня 2022 года, № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» от 28 января 2022 года; в Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-271 «О мерах по созданию специальных экономических и малых промышленных зон в регионах и обеспечению их инженерно-коммуникационной инфраструктурой» от 6 июня 2022 года, № ПП-3513 «О мерах по продаже объектов государственной собственности субъектам предпринимательства и созданию малых промышленных зон в Хорезмской области» от 6 февраля 2018 года; в Постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан № 432 «О дополнительных мерах по

²⁸State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics. (2025). Industry statistics section. Retrieved June 7, 2025, from <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/sanoat>

поддержке предпринимателей малых промышленных зон, а также молодёжных промышленных и предпринимательских зон» от 17 июля 2024 года, № 134 «Об утверждении Положения о малых промышленных зонах» от 9 марта 2020 года, № 308 «О создании дополнительных малых промышленных зон в Хорезмской области» от 26 апреля 2018 года, а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий в Республике. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики 1. «Развитие демократического и правового общества, духовно-нравственного и культурного развития, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Вопросы развития экономики, в частности, теоретические аспекты привлечения инвестиций в малые промышленные зоны и их эффективного использования, изучались рядом учёных. В частности, западные исследователи М. фон Хауфф, С. Сах, А. Грант, Т. Х. Давенпорт, Н. Миттал, В. Чан Ким, Р. Мауборгне, С. Ванг, Ч. Лян, Й. Гао, Й. Лю, Ж. Ли, Х. Ванг, Р. Яо, Адизес И., В. П. Кам, Т. С. Ви и другие анализировали теоретические и практические концепции менеджмента, управленческих компетенций, инвестиций и их эффективности, а также экономической устойчивости²⁹.

В научных трудах экономистов стран СНГ – С. Бороздиной, Д. Искандарова, Т.В. Коноваловой, А.В. Чебикиной, Д.И. Кокурина, О.Н. Беленова, Ю.В. Шурчковой, Т.Ю. Смоляниновой, Л.Н. Оголевой – исследованы формы инвестиций в малых промышленных зонах, источники их финансирования, а также вопросы оценки их эффективности.³⁰

